

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi "Jasorat maktablari"ga qabul imtihoni materiallari spetsifikatsiyasi

5-sinf

2025/2026-o'quv yili

I. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi Jasorat maktablari maktablariga qabul imtihonlarini o'tkazishdan maqsad matematika va ona tili fanlaridan bilimlar darajasini aniqlash, muammolarni hal qilishda bilimlarini qo'llay olish, xulosa chiqarish va qaror qilish ko'nikmalarini tekshirish, munosib o'quvchilarni tanlash.

II. Qabul imtihoni variantining tuzilishi.

Imtihon savollarining har bir varianti kognitiv darajasi bilish, qo'llash, mulohaza qilish bo'lgan 20 ta ona tili, 30 ta matematika va mantiqiy fikrlashga oid bitta muqobil javobga ega bo'lgan test topshiriqlaridan iborat.

Topshiriqlar umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarining matematika va ona tili fanlari o'quv dasturlari asosida tuziladi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari matematika va ona tili fanlari bo'yicha quyidagi mazmun sohalarni qamrab olgan (1-jadval):

Shuningdek, imtihon savollari uchta kognitiv darajaga mos tuzilgan (2-jadval):

Bilish;

Qo'llash;

Mulohaza.

1-jadval

Matematika fanidan mazmun sohalari bo'yicha topshiriqlarning taqsimoti

Mazmun soha	Topshiriqlar soni	Topshiriqlarning foizi
Sonlar va amallar	8	40
Algebra va funksiyalar	4	20
Geometriya va o'lchashlar	6	30
Statistika va ehtimollik	2	10
Jami:	20	100%
Mantiqiy fikrlash	10	100%

Ona tili fanidan mazmun sohalari bo'yicha topshiriqlarning taqsimoti

Mazmun soha	Topshiriqlar soni	Topshiriqlarning foizi
--------------------	--------------------------	-------------------------------

Fonetika va imlo	4	20
Leksikologiya	4	20
Soʻz tarkibi.	2	10
Morfologiya	2	10
Tinish belgilari	1	5
Matnni tushunish	7	35
Jami:	20	100%

2-jadval

Matematika fanidan baholanadigan koʻnikmalar taqsimoti

Mazmun soha	Bilish	Qoʻllash	Mulohaza
Sonlar va amallar	2	4	2
Algebra va funksiyalar	1	1	2
Geometriya va oʻlchashlar	1	3	2
Statistika va ehtimollik		2	
Jami:	4	10	6

Ona tili fanidan baholanadigan koʻnikmalar taqsimoti

Mazmun soha	Bilish	Qoʻllash	Mulohaza
Fonetika va imlo	2	2	
Leksikologiya	1	2	1
Soʻz tarkibi.		1	1
Morfologiya		1	1
Tinish belgilari	1		
Matnni tushunish		4	3
Jami:	4	10	6

Bilish - reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni oʻquvchilar tomonidan oʻquv materialini qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi,

qonuniyatlar, xossalar, formula, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, **yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda** qo‘llashga qaratilgan.

Qo‘llash - produktiv o‘quv topshiriqlari – o‘quvchilardan o‘rganilgan mavzuga oid qonun va qonuniyatlar, xossalar va formulalarni qo‘llash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, ***bir nechta qonun va qonuniyatlarni*** bir vaqtda qo‘llab, umumlashtirish va xulosa yasashni talab qiladi.

Mulohaza - intellektual darajadagi topshiriqlar o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni ***notanish vaziyatlarda*** qo‘llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo‘llab, umumlashtirishni talab qiladi.

3-jadval

Matematika topshiriqlarida baholanadigan ko‘nikmalar

№	Mazmun sohalari		
I	Sonlar va amallar		Baholanadigan ko‘nikma
1	Ko‘pxonali sonlar ustida 4 amalga doir hisoblash.	1	Ko‘pxonali sonlar ustida 4 amalga doir hisoblashda amallar tartibi algoritmini qo‘llay oladi.
2	Bo‘linish alomatlari.	1	10, 5, 2, 3, 9, 4-sonlariga bo‘linish alomatlarini ajrata oladi.
3	Taqqoslashga doir misol.	1	Tengsizlik yechimining oralig‘ini aniqlay oladi
4	Hisoblashga doir miqdoriy matnli masalalar.	1	Hisoblashga doir amaliy masalalarni yechishda fikrlarni izohlaydi va asoslay oladi.
5	Kasr qiymatni topish.	1	Kasrlarning qiymatini aniqlab, ularni modellarda, son o‘qida tasvirlay oladi.
6	Oddiy kasrlarni qo‘shish va ayirishga doir hisoblash.	1	Oddiy kasrlarni qo‘shish va ayirishda amallar xossalarini qo‘llay oladi.
7	Oddiy kasrlarni qo‘shish va ayirishga doir masala.	1	Oddiy kasrlarning qo‘shish va ayirish qoidalarini qo‘llay oladi, amaliy muammolarni hal qilishda asoslay oladi.

8	Sonning qismini topishga doir masalalar.	1	Sonning qismini topishga doir bir necha bosqichli matnli masalalarni yecha oladi.
III	Algebra va funksiyalar		Baholanadigan ko'nikma
9	Koeffitsiyentli chiziqli tenglama.	1	Koeffitsiyenti birdan farqli bo'lgan bir necha amalli chiziqli tenglamalarning ildizini topa oladi.
10	Foizga doir matnli masala	1	Foiz qatnashgan amaliy vaziyatlarga doir masalalarni yechishda tahlil qiladi, mos qoidalarni qo'llaydi va xulosa chiqaradi.
11	Qismiga ko'ra sonni o'zini topishga doir masalalar.	1	Qismiga ko'ra sonni o'zini topishga doir bir necha bosqichli matnli masalalarni yecha oladi.
12	Quvish va kechikish masalalari	1	Quvish va kechikish harakatiga doir nostandart masalalarni yechishda vaziyatni baholaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.
IV	Geometriya va o'lchashlar		Baholanadigan ko'nikma
13	O'lchov birliklari orasidagi munosabatlar.	1	Berilgan o'lchov birligini boshqa o'lchov birligiga aylantiradi va aksincha.
14	Burchakning gradus o'lchovi.	1	Qo'shni burchaklarning kattaligini berilgan munosabat va shartga ko'ra aniqlay oladi.
15	To'rtburchak, uchburchak perimetrini topish.	1	To'rtburchak, uchburchak perimetrini topishga oid bir necha bosqichli masalalarni yecha oladi.
16	To'rtburchak yuzini topish.	1	To'rtburchak yuzini topishga oid bir necha bosqichli masalalarni yechishda sodda shakl yuzini topish qoidalarini qo'llay oladi.
17	Uchburchak yuzini topish.	1	To'g'ri burchakli uchburchak yuzini topishga oid bir necha bosqichli masalalarni yechishda to'g'ri to'rtburchak yuzini topish qoidalarini qo'llay oladi.
18	Murakkab shakl perimetrini topish.	1	Murakkab shakl perimetrini topishga oid bir necha bosqichli masalalarni yechishda sodda shakl perimetrini topish qoidalarini qo'llay oladi.

VI	Statistika va ehtimollik		Baholanadigan ko'nikma
19	To'plamlarga oid matnli masalalar.	1	To'plamlarga oid matnli masalalarni yechishda Venn diagrammasidan foydalanadi, umumlashtiradi va farqlay oladi.
20	Kombinatorikaga oid matnli masalalar.	1	Kombinatorikaga oid amaliy masalalarni yechishda qo'shish va ko'paytirish qonunlaridan asosli ravishda foydalanadi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.
Jami :		100 % 20 ta	

Mantiqiy fikrlash topshiriqlarida baholanadigan ko'nikmalar

№	Bo'lim	Topshiriqlar soni	Baholanadigan ko'nikma
1	Fazoviy fikrlashga testlar	1	Shakllarning aylanishi, geometrik hajmli va yassi shakllarning fazoda joylashishini aniqlaydi;
		1	Obyektlar o'rtasidagi munosabat va bog'liqliklar, obyektlarning muhim belgi va xususiyatlari aniqlaydi.
2	Abstrakt mantiqiy fikrlashga testlar	1	Tasavvurda shakl va obyektlarni muayyan burchakka soat yo'nalishi bo'ylab va unga qarshi aylantirish bo'yicha mulohaza qiladi;
		1	Amalga oshirilgan harakatlar ketma-ketligini aniqlaydi;
		1	Obyektlarning joylashuvi ketma-ketligini aniqlaydi;
		1	Keltirilgan namuna asosida tasvirlarning simmetrik shaklni aniqlaydi;
3	Raqamli testlar	1	Sonlar qatorida raqamlar mantiqiy ketma-ketligining xususiyatlarini aniqlaydi;
4	Verbal testlar	1	Tushunchalar, predmetlar o'rtasidagi mantiqiy qonuniyatlarini o'rnatadi;
5	Verbal mantiqiy testlar	1	Ketma-ketliklarning mantiqiy qonuniyatlarini aniqlaydi;
		1	Tushunchalarning o'zaro bog'liqligini birlashtiruvchi xususiyatlarini ajrata oladi.

Ona til fanidan topshiriqlarda baholanadigan ko'nikmalar

№	Mazmun sohalari		
	Fonetika va imlo	Topshir iqlar soni	Baholanadigan ko'nikma
1	Nutq tovushlari.	1	Nutq tovushlari va harflarni farqlaydi. Unli va undosh tovushlarni tasniflaydi.
2	Fonetik hodisalar.	1	Tovush o'zgarishiga uchragan so'zarni aniqlab, turiga ko'ra ajratadi.
3	Bo'g'in.	1	Bo'g'in va uning turlarini farqlaydi
4	Imlo.	1	To'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlay oladi.
Leksikologiya			
5	So'z izohi	1	Matndagi notanish so'z(lar)ni matn mazmuni asosida tushunadi.
6	O'z va ko'chma ma'no.	1	So'zlarning atash ma'nolarini aniqlaydi.
7	So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.	1	Omonim, sinonim, paronim, antonim so'zlarni farqlaydi.
8	Iboralar.	1	Iboralarning mazmunini izohlaydi.
So'z tarkibi			
9	Asos va qo'shimchalar	1	So'zlarni ma'noli qismlarga ajratadi.
10	Sodda va yasama so'zlar	1	Sodda yasama so'zlarni aniqlay oladi.
Morfologiya			
11	Mustaqil so'z turkumlari.	1	Mustaqil so'z turkumlarining o'zaro farqini aniqlay oladi.
12	Fe'l so'z turkumi.	1	Fe'l zamonlarini farqlay oladi.
Tinish belgilari			
13	Nuqta, vergul, so'roq, undov va qo'shtirnoqning qo'llanishi.	1	Matndan tushirib qoldirilgan tinish belgilarining o'rnini aniqlaydi.
Matnni tushunish			
14	Matn sarlavhasi.	1	Matn mazmuniga mos sarlavha tanlay oladi.
15	Matn davriy izchillik.	1	Matnda voqea-hodisalarning ketma-ketligi bilan tartiblay oladi.

16	Matndagi asosiy fikr.	1	Matnning asosiy g'oyasini aniqlay oladi.
17	She'rdagi badiiy tasvirlar.	1	She'rda berilgan badiiy tasvirlar mazmunini tahlil qila oladi.
18	Axborot matni bilan ishlash.	1	Matndagi fakt(lar)ni fikr(lar)dan ajrata oladi.
19	Matndan chiqarilgan xulosa.	1	Matn mazmuniga oid xulosalar asosida mulohaza yurita oladi.
20	Matn mazmunining tahlili	1	Matndagi muammolarning kelib chiqish sababini aniqlaydi.

Javoblar varaqasini to'ldirish shartlari:

test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun ball berilmaydi.

Spetsifikatsiyada ko'rsatilgan mavzular quyidagi adabiyotlardan olingan:

1. Matematika 3-sinf I.V.Repyova "Novda" 2023.
2. Matematika 4-sinf I.V.Repyova "Novda" 2023.
3. Ona tili 3-sinf M.E.Toirova D.D.Boynazarova "Novda" 2023
4. Ona tili 4-sinf M.E.Toirova D.D.Boynazarova "Novda" 2023